


53-§. Amaliy mashg'ulot

Afrikaning siyosiy xaritasi, tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitini o'rganish

1. Quyidagi Afrika davlatlari nomlari va ularning umumiy jihatini aniqlab, bu yerda yana qaysi davlatlar bo'lishi kerakligini toping.



2. Jadvalni to'ldiring.

Davlatlar	Maydoni, ming km ²	Aholisi, mln kishi	Aholi zichligi, kishi/km ²
Chad	1284	16,9	...
Keniya	582,6	53,5	...
Angola	1246,7	32,5	...
Senegal	196,2	16,7	...

3. Quyidagi davlatlar juftligi orasidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo'lganlarini toping.

JAR — Burundi;
Misr — Marokash;

Tunis — Uganda;
Botsvana — Mavrikiy;

Jazoir — Malavi;
Mavritaniya — Ruanda.

4. Quyidagi fikrlarni davom ettiring.

Afrika mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar:

Ijobiy tomondan

Salbiy tomondan

Issiqlik resurslari bilan yetarli
darajada ta'minlanganligi

Ko'p mamlakatlarda suv
resurslarining yetishmasligi

... ..

... ..



5. Quyidagi davlatlarga tegishli ma'lumotlarni topib, mos javoblarni daftaringizga belgilang.

1) JAR; 2) Misr; 3) Nigeriya.

- ☐ a) Asosan subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan;
- ☐ b) Aholisi qo'shni davlatlardan ko'chib kelayotganlar hisobiga ham ko'paymoqda;
- ☐ d) Afrika mamlakatlari orasida aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadi;
- ☐ e) Ko'mir, marganes, xrom, uran, oltin, olmos, platina, vanadiy va turli nodir metallarning katta zaxiralari mavjud;
- ☐ f) Afrika mamlakatlari orasida don ekinlari, sabzavot va mevalarning yalpi hosili bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi;
- ☐ g) Iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadlarining bosh manbai neft eksporti;
- ☐ h) Turizm rivojlanishiga dengizbo'yi hududlarining tabiiy sharoiti hamda mamlakatning juda boy tarixiy-madaniy merosi katta ta'sir ko'rsatadi;
- ☐ i) 10 ta "millioner" shahri mavjud;
- ☐ j) Tropik Afrika mamlakatlaridan yevropaliklarning nisbatan yuqori ulushi bilan ajralib turadi.

6. Atlasdagi Afrika iqtisodiy xaritasi yordamida Shimoliy Afrika va Tropik Afrika davlatlari qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini taqqoslang.

